

DINIY BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARI ASOSIDA YOSHLARNI TARBIYALASHDA TARIXIY MEROSIMIZNI TUTGAN O‘RNI

Atajanov Axtam Yusupovich

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif tomonidan Vatan tarixini, o‘qitish va o‘rganish jarayonida chuqur ilmiylik, xolislik, tarixiy haqiqatning ustivorligi asosiy va bosh yo‘nalish bo‘lishi lozim deb belgilangan. O‘zbekiston tarixi fanidan bir nechta misollar keltirib, bizning mintaqamizda boshqa mintaqalardan farqli o‘laroq har-xil diniy e‘tiqodlar ortidan hech qachon urushlar bo‘lgan emas, ya‘ni diniy bag‘rikenglik g‘oyalari shu hududda yashovchi millatlarda qadimdan boshlab shakllanib kelganligiga urg‘u berilgan. Vatan tarixining boshidan oxiriga qadar singib ketgan asosiy g‘oya-otashin vatanparvarlik, diniy bag‘rikenglik, insonparvarlik kabi ulug‘ fazilatlarga qaratilmog‘i hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lishi va milliy g‘oya va milliy mafkuraning kamol topishiga xizmat qilishi darkorligi takidlangan. Bizning asosiy vazifamiz armiyamizda xizmat qilayotgan yoshlar bilan ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya bilishimizda.*

Tayanch iboralar: *Vatan, diniy e‘tiqod, bag‘rikenglik, ma‘naviyat, tarixiy haqiqat.*

Аннотация: *В данной статье автор указывает о том, что при изучении истории Отечества надо обратить внимание на приоретность исторической правды, научность и правдивость изучаемого исторического материала. Приводя примеры из истории Узбекистана, автор особенно почеркнул то, что на нашей территории, в отличие от других регионов, никогда не возникали конфликты на религиозной почве, тем самым хочет почеркнуть, что история религиозной терпимости была у нас испокон веков. При изучении истории Узбекистана должны лидировать идеи патриотизма, толерантности, человечности и служить идеям национальной идеологии. Самым основным видом нашей воспитательной системы должна быть духовно-воспитательная работа, чтобы воспитывать молодежь, которая служит в нашей армии.*

Ключевие слова: *Родина, вероисповедание, толерантност, духовност, историческая правда.*

Summary: *In this article author shows that on acquiring the history of the Motherland we should pay attention on the mainly truly history and scitific trustful materials of history. Giving examples from history of Uzbekistan, author greatly payed attention on in our territory in difference from other regions that never been any conflicts in religous base, so he says that history of our religious was born many centuries ago. On studying history of Uzbekistan should lead only patriotic ideas, tolerance, humanitariance and to serve only for national ideology. The main kind of our educational system should be spiritual-educational side for educate youth who serve in our Army.*

Key words: *Motherland, humanitariance, spirity, enlightenment, duty*

Diniy bag‘rikenglik g‘oyalari asosida yoshlarni tarbiyalashda tarixiy merosimizni tutgan o‘rni. Hozirgi kunda Oliy Harbiy bilim yurtlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu ma‘naviy ongi

yuqori darajada shakllangan harbiy kadrlar yetkazib berish maqsadi turibdi. Ma‘naviy ongning ajiralmas qismlaridan biri bu diniy bag‘rikenglik xisoblanadi. Bu masalani omalga oshirishda ijtimoiy siyosiy fanlar oldida asosiy maqsad bo‘lib, kursant va tinglovchilarda ma‘naviy ongni shakllantirish vazifasi turibdi.

Ma‘naviy ongi shakllanmagan shaxsning dunyo qarashi tor va har qanday ta‘limot va qarashlar girdobiga tushib qolaveradi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatni porokandalik botqog‘iga yetaklovchi omil xisoblanadi.

Albatta yoshlarni diniy bag‘rikenglik g‘oyalari asosida tarbiyalashda tarixiy xotirani o‘rnini bosuvchi vosita yo‘qdir.

Hammamizga ma‘lumki, sobiq ittifoq davrida haqiqiy tariximiz buzib ko‘rsatilib kelindi. Biz endi mustaqil davlat sifatida deyarli unitilayotgan o‘tmishimizni butun borliq mahobati va buyukligi bilan ko‘z oldimizga keltirmoqdamiz. Jonajon tariximiz sahifalarini varoqlar ekanmiz, Markaziy Osiyo xalqlari qadimdan bir tarixiy taqdirga, bir ildizga ega ekanligini, ularning tarixiy va madaniy merosi umumiy bo‘lganligini ko‘ramiz.

Endilikda xalqimizda jonlangan o‘zligini anglash va milliy uyg‘onish hissiyotini rivojlantirish, yoshlar ongiga o‘tmish tarixi, ota bobalar ruhini, moddiy-ma‘naviy madaniyatga bo‘lgan mehr hurmat va qadr-qimmat his-tuyg‘ularini singdirish tarix fanining asosiy vazifasidir.

Diniy e‘tiqod, huquq adolat, ahloq yaxshilik, san‘at go‘zalik, siyosat davlat bilan shug‘ullansa tarix o‘tmish haqiqatlari bilan shug‘ullandi. Tarix o‘tmishimizni chuqur o‘rganish bilan kelajagimizni yortib beradi.

Vatanimiz tarixini yozib qoldirgan buyuk tarixshunos ajdodlarimiz Abdurazzoq Samarqandiy, Abu Rayxon Beruniy, Hondamir, Narshaxiy va boshqa tarixiy voqealarni yoritib qoldirgan tarixchilar asarlari o‘tmishda buyuk voqealar bilan birga xalqimiz boshiga tushgan kulfatlar bosqinchilik yurishlari xaqida ham xikoya qilganlar. Bu manbalar shu narsadan dalolat beradiki insoniyat taraqqiyoti davomida yo‘l qo‘ygan xatosidan to‘g‘ri hulosa chiqarib olmas ekan, bunday kulfatlar shu jamiyat boshiga qayta-qayta tushaveradi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning “...tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekinligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan kishining kelajagi ham bo‘lmaydi”, [1,12]- deganlari ayni haqiqatdir.

Yoshlarni diniy bag‘rikenglik g‘oyalari asosida tarbiyalashda tarixiy merosimizni o‘rganishda albatta quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘ygan holda o‘rganmoq zarur:

Vatan tarixini o‘qish va o‘rganish jarayonida yoshlarda tarixiy bilimlar, ilmiy-nazariy tushunchalar va tasavvurlar shakllanmog‘i lozim. Chunki voqea va hodisalarni bilmasdan, ular haqida tushuncha va tasavvurga ega bo‘lmasdan turib g‘oyaviy-siyosiy dunyoqarash haqida gap yuritish mumkin emas; Masalan tarixiy haqiqat shundan dalolat beradiki bizning mintaqamizda boshqa mintaqalardan farqli o‘laroq har-xil diniy e‘tiqodlar ortidan hech qachon urushlar bo‘lgan emas. YA‘ni diniy bag‘rikenglik g‘oyalari shu hududda yashovchi millatlarda qadimdan boshlab shakllanib kelgan.

Tariximizda bizga ma‘lum bo‘lgan ma‘lumotlar borki ularni yoshlarga to‘g‘ri talqin qilib yetkazish ularda diniy bag‘rikenglik tuyg‘ularini yuksak darajada shakllantirishga xizmat qiladi.

Jahon dinlarining shakllanish joylari o‘zga hududlarda bo‘lsa ham ularning takomillanishi bizning o‘lkada yuz bergan. Masalan: tariximizning I-IV asrlarini o‘z ichiga olgan Kushon podsholigi

xususan uning xukmdori Kanishka davri Hindiston xududlari egallangandan so‘ng buddizm dinini keng xarakat qilgani. Xatto keyinchalik buddizm keng ravnaq topgan va rivojlangan Xitoy imperiyasiga ham Markaziy Osiyo xududlari orqali bu din keng tarqalgan. Bunga guvoh Surxondaryo viloyati hududlaridan topilgan arxeologik topilmalar xisoblanadi. Huddi shunday ma‘lumot bu melodiy I asrdan XI asrgacha Markaziy Osiyo xududida xristian dinini kirib kelishini misol tariqasida aytishimiz mumkin.

Xattoki bu din keyinchalik ravnaq topgan Yevropa mamlakatlaridan oldin Markaziy Osiyo xududlariga kirib kelgan.

Faqatgina VIII asrda islom dinining kirib kelganligi bu dinning bu xududda barham topishiga olib kelgan. Unday bo‘lsa ham boshqa din vakillarini qirg‘in qilinmagan xolda balki islom dinini afzalliklarini hamda bu hudud aholisiga mosligi tushuntirilgandan so‘nggina bu dinlar barham topgan.

Bizga bugungi kunda ma‘lum bo‘lgan Isroil-Falastin o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlar bu nafaqat xududlar uchun bo‘layotgan urush sifatida olishimiz mumkin balki bu ikki din o‘rtasidagi kurash deb qarashimiz mumkin. Lekin o‘lkamiz tarixida shunday ma‘lumotlar borki yaxudiy millatiga mansub shaxslarning o‘rta asrlarda boshqa o‘lkalardan quvg‘in qilinishi ularni Buxoro shahriga kelib joylashishlariga sabab bo‘lgan. Shu davr davomida ko‘chib kelgan yaxudiy larni bu xududda yashovchi xalq bilan urf-odatlarini yaqinlashganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Bu xududda yashovchi xalqning diniy, bag‘rikengligi ular o‘rtasida hech qanday nizolarni kelib chiqishlariga yo‘l qo‘ymagan. Buxoro jugutlarining diniy e‘tiqodlari saqlab qolishlariga imkon yaratib bergan.

Tariximiz zarvaraqlarida bundayin misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Sohibqiron Amir Temur davrida bunday boshqa din va millat vakillariga boshpana berish o‘z himoyasiga olganligi haqidagi ma‘lumotlar ko‘plab saqlab qolingan. Ulardan biri Sohibqironning Iroq-Eron davlatlariga harbiy yurishni misol tariqasida oladigan bo‘lsak bu davrda Iroq hududida musulmonlarning shia yo‘nalishiga mansub aholini qirg‘in qilinishining ustidan chiqadi. Amir Temur o‘zining odilona siyosati tufayli bu yerdagi shia va suniylar o‘rtasidagi urushga barham beradi hamda bu hududda shialar homiysi degan nom oladi.

Sohibqiron avlodidan bo‘lgan Zahriddin Muhammad Bobur Hindiston hududlarini o‘z qo‘liga kiritgandan so‘ng bu hudud aholisini yoppasiga islomlashtirishga kirishmadi balki hindlarning e‘tiqod qiluvchi o‘z dinlari uchun keng imkoniyatlar yaratib ulardagi odamlarni qurbon qilish hamda dafn etish marosimlarida marhumning yaqinlarini qo‘shib o‘tda yondirishlariga chek qo‘ydi. [3,132]-

Bu tarixiy faktlardan ko‘rinib turibdiki diniy bag‘rikenglik millat mintalitetiga qo‘shilib ketgan bo‘lib u o‘zbek xalqi ma‘naviy dunyoqarashining ajralmas qismiga aylangan.

Shunga qaramasdan tariximizda mintaqamizda diniy nizolar kelib chiqmagan. Shuning uchun ham tarixiy merosimizni o‘rganishda quyidagilarga amal qilishimiz lozim;

Birinchidan, Vatan tarixini yoritish, o‘qitish va o‘rganish jarayonida chuqur ilmiylik, xolislik, tarixiy haqiqatning ustivorligi asosiy va bosh yo‘nalish bo‘lishi lozim;

Ikkinchidan, Vatan tarixining har bir satri, har bir varag‘i milliy qadriyatlarga hurmat ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lishi va milliy g‘oya va milliy mafkurasining kamol topishiga xizmat qilishi darkor;

Uchinchidan, Vatan tarixining boshidan oxiriga qadar singib ketgan asosiy g‘oya - otashin vatanparvarlik, diniy bag‘rikenglik, insonparvarlik kabi ulug‘ fazilatlariga qaratilmog‘i kerak;

To‘rtinchidan, Vatan tarixi fani mustaqil respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy qadriyatlarining yanada mustahkamlanishi va ravnaq topishiga xizmat qilishi, davr va zamon bilan hamnafas bo‘lmog‘i ayni muddaodir.

Bugungi kunda Vatan tarixini yoritishning ilmiy-metodologik yo‘nalishlari ko‘rsatib berildi. Bu yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- xalqimiz o‘tmishidagi millat taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy jarayonlarni chuqur ilmiy tadqiq etishda holisona yoritish;

- O‘zbekistonning yangi tarixini yozishda tarix bosqichlari va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uzluksiz jarayon ekanligini nazarda tutish, tarixiylik va vorisiylik tamoyillariga amal qilish;

- O‘zbekiston xalqining buyuk tarixiy merosga ega ekanligi va umumbashariyat qadriyatlariga munosib hissa qo‘shganligini e‘tirof etgan holda o‘ziga xos davlat qurilishi an‘analari va ularga nisbatan fikrlar, qarashlar xilma-xilligini hisobga olish;

- “O‘zbekistonning yangi tarixi”ning har bir qismi va bo‘limlarini yozishda biryoqlama, subyektiv yondoshuvlarga yo‘l qo‘ymasdan holisona tadqiqot usuliga amal qilish;

- “O‘zbekiston tarixi”ga oid voqea-hodisalarni yoritishda uning ko‘xna Turoni-zamin, Turkiston tarixining tarkibiy qismi bo‘lganligini yodda saqlash:

- O‘zbekiston tarixi dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar hamda jahon taraqqiyoti jarayonlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini va ularning bir-biriga o‘zaro ta‘sirini hisobga olish;

- yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalari, vatanparvarlik va umuminsoniylik ruhida tarbiyalashda tarixiy voqea-hodisalarning ahamiyatini eotiborga olish.

Xulosa qilib O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday deydilar: “Modomiki, o‘z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo‘lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur”. [2,113] Bu vazifalarni bajarish uchun nima qilish kerak. Vatan tarixi fanining vazfalarini Prezidentimiz lo‘nda qilib ko‘rsatganlar. “Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo‘nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo‘lishini ko‘rsatib berishdan iborat deb, tushunaman.

Tarixiy voqea, hodisalarni o‘rganish, tahlil etish va yoritishda holislik-haqqoniy, adolatli yondoshuv muhim metodologik qoidadir. Holislik qoidasini tarixiy voqea, hodisalarni o‘rganayotganda ular bilan bog‘liq bo‘lgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmui bilan birga olib tekshirishni, aniq haqqoniy dalillarga asoslanishini talab qiladi.

Tarixni o‘rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqea-hodisalarni o‘z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda o‘rganishni taqozo etadi. Voqea - hodisalarni o‘rganishda tarixiy bog‘lanish, tarixiy rivojlanish jarayoniga e‘tibor qilmoq zarur. Har bir hodisa qanday tarixiy sharoitda, muhitda bo‘lganligini bu hodisa o‘z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni o‘tganligini, keyinchalik u qanday bo‘lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermoqchi bo‘lsak, birinchidan, u qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo‘ldi, ikkinchidan u o‘z taraqqiyotida qanday bosqinchilarni bosib o‘tdi, uchinchidan, u hali ham mavjudmi?, hozir qay ahvolda, qanday bo‘lib qoldi?, degan savollarga aniq javob berishi zarur bo‘ladi.

Tarixiylik metodologiyasi xalqning o‘tmishini, hozirgi zamon va kelajagini yagona tabiiy jarayon deb, o‘tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo‘ldan borayotgan ekan, porloq hayot, turmush qurmoqchi bo‘lgan avlod tarix fani orqali o‘z o‘tmishini yaxshi bilmog‘i lozim. O‘tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni, mustaqilligimiz mazmunini shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to‘g‘ri tasavvur etamiz. Shuningdek, hozirgi zamonni bugungi avlodning bunyodkorlik faoliyatini to‘g‘ri idrok etish o‘tmishni, tariximizni chuqur anglashga ko‘maklashadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, Uzbekiston, 2009 y.
2. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent. Sharq, 1998y.
3. H. Ziyoyev. «Tarix – o‘tmishi va kelajak ko‘zgusi», G.G‘ulom, T-2000y.